ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА МАДАНИЯТЛАР ТАЪСИРИ

Ибрагимов Солижон Эргашович
ҚаршМИИ катта ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада глобаллашув жараёнида маданиятлар алмашишига олиб келиши ва айни пайтда, Ғарб оламида юзага келган “оммавий маданият”нинг мамлакатимизга кириб келиши ва ёшлар тарбиясига хатарли тахдиди хамда ёшларимизда мафкуравий иммунитетни шакллантириш хақида сўз боради.

Калит сўзлар: глобал маданият, ўзликни англаш, “Оммавий маданият”, ахборот хуружи, мафкуравий иммунитет, ахлоқий бузуқлик, индивидуализм, эгоцентризм.

Бугунги кунда халқаро майдонда турли сиёсий кучлар ўзининг миллий ва стратегик режаларига эришиш учун “Эркинлик ва демократияни олға силжитиш” ниқоби остида амалга ошираётган, узоқни кўзлаган сиёсатнинг асл моҳияти ва мақсадларини ўз вақтида сезиш, англаш катта аҳамият касб этишини, қудратли давлатлар томонидан муайян давлатларга, ер ости, ер усти бойликларига эга бўлган ҳудудларга нисбатан олиб борилаётган ғаразли сиёсати ўша ердаги тинч ҳаётни издан чиқараётганлиги сир эмас.

Бутун жаҳонда глобаллашув жараёнларининг кучайиб бориши билан Ер юзида тинчлик-барқарорликни сақлаш, аҳоли фаровонлиги, унинг муносиб турмуш даражаси,

ижтимоий-иқтисодий тараққиётни таъминлаш, умумбашарий муаммолар билан биргаликда, миллий маданият, санъат ва урф-одатларни сақлаб қолишдек масалалар ҳам кун тартибига чиқмоқда. Глобаллашув жараёни билан боғлиқ зиддиятлар, маънавият ва маданият соҳасида яққол намоён бўлмоқда. "Шу жиҳатдан глобаллашувга бутун дунёни қамраб олган маданий инқилоб деб таъриф бериш ҳам мумкин" [1,5].

Халқимизнинг маънавий оламини бундай таҳдидлардан асраш, ўта мураккаб бир замонда халқаро майдонда содир бўлаётган жараёнларнинг туб моҳиятига етиб бориш, улар ҳақида холис ва мустақил фикрга эга бўлиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидандир.

Глобаллашувнинг салбий жиҳатлари асосида миллий маданиятлар ва қадриятларнинг емирилиши, инсонларнинг миллий идеалларини ўзгариши, ѐшлар тарбияси билан боғлиқ салбий ҳолатлар, анъанавий жамиятларда яшаѐтган аҳоли ўртасида, хусусан кўп миллатли таркибга эга аҳоли ўртасида миллий, диний, ғоявий негизда қарама-қаршиликларни юзага келмоқда. Зеро, «...ҳозирги вақтда дунѐнинг турли минтақаларида маданиятлараро ва динлараро кескинлик кучайиб бормоқда, миллатчилик, диний муросасизлик бош кўтармоқда. Бу иллатлар давлатни емириб, жамиятни парчалаб, радикал гуруҳ ва оқимлар учун мафкура базасига айланмоқда,-деб таъкидлайди Ш.Мирзиѐев, -ана шундай мураккаб вазиятда мамлакатимизда турли миллат ва динга мансуб инсонлар ўртасида дўстлик ва ҳамжиҳатликни янада мустаҳкамлаш биз учун борган сари муҳим аҳамият касб этмоқда[2]». Шу боис, ҳар бир мамлакат ўзининг ички сиѐсатида жамият аъзоларида маданиятлараро мулоқот кўникмаларини шакллантириш борасидаги тарғибот ишларини кенгайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда

Глобаллашувнинг натижалари (ижобий жиҳатлари) ва оқибатлари (салбий жиҳатлари) миллий маданият ва маънавият, миллий қадриятлар тизимига таъсир этиши табиий. Ҳозирда глобаллашув шароитида юзага келаётган универсаллашув, бир томондан, барча миллатлар учун тараққиётнинг бир хил қолипларини тақозо этса¸ иккинчи томондан, ана шу жараёнлар таъсирида миллий ўзликни англаш, анъанавийлик ва миллий ўзакларга қайтишга интилишни кучайтирмоқда. Миллий ўзликни англаш масаласи миллат билан боғлиқ муаммоларнинг негизи ҳисобланади.

Миллий ўзликни англаш миллат шаклланишининг асосий шартларидан бири бўлиб, у ўзга миллатлар ва уларнинг маданиятини инкор этиш ҳисобига эмас, аксинча, уларга ҳурмат билан қараш, ўзини бошқа миллатлар маданияти ва маънавиятига таққослаш, уларнинг илғор томонларидан ўрнак олиш ва уларни ўзлаштириш орқали ўзига хослиги ва менталитетини сақлаб қолиш демакдир. "Бинобарин, биз давлатимиз келажагини ўз қобиғимизга ўралиб қолган ҳолда эмас, балки умумбашарий ва демократик қадриятларни чуқур ўзлаштирган ҳолда тасаввур этамиз. Биз истиқболимизни тараққий топган мамлакатлар тажрибасидан фойдаланиб, давлат ва жамият бошқарувини эркинлаштириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини, фикрлар ранг-баранглигини ўз ҳаётимизга янада кенгроқ жорий қилишда кўрамиз. Биз бутун маърифатли дунё, халқаро ҳамжамият билан тинч-тотув, эркин ва фаровон ҳаёт кечириш, ўзаро манфаатли ҳамкорлик қилиш тарафдоримиз" [3.114].

Миллий ўзликни англаш масаласининг марказида миллий маданият муаммоси туради. Миллат ва миллий маданият идентификацияси маданиятлараро мулоқотсиз ва диалогсиз амалга ошмайди. Маданиятлараро диалог давомида миллий маданият ўзини англайди, унда ўзини бошқа маданиятлар билан солиштириш, баҳолаш ва қайта баҳолаш имкони туғилади.

Бундай диалог маҳаллий маданиятга ўзининг консерватив ва айрим догматик томонларини тушуниб етиш, улардан воз кеча олиш ва ўзига нисбатан танқидий ёндашишга ёрдам беради. Ҳар қандай маданият бундай сифатда яшай олиши ва тараққий эта олиши учун у бир вақтнинг ўзида турли маданиятлар чегарасида мавжуд бўлиши, улар билан диалогга кириши, улар қўйган долзарб саволларга жавоб бера олиши ва улар орқали ўзини намоён эта олиши зарур [4.286].

Аксинча, бошқа маданиятларнинг таъсиридан ўзини ҳимоя қилиш мақсадида атрофига тўсиқ қўйиб, "беркиниб олишга" ҳаракат қилмоқчи бўлган миллат ва маданият замонавий интеграция, модернизация жараёнларидан, замон талабларидан, демак, тараққиётдан орқада

қолади. Жамиятда амалга ошиб бораётган модернизация ва алоқадорликни инкор этувчи маданият фақат анъанавий моҳиятга эга бўлиб, бундай жамиятнинг ривожланиш потенциали пасайиб, фундаментализм томон боради. "Ҳар қандай анъана ёки мафкурада толерантликка ва диалогга қобилиятини йўқотиш, монологлашиб ва агрессивлашиб бориш, ўзини ягона ҳақиқий таълимот деб ҳисоблаб (англаб ва уни эълон қилиб), фундаментализм шаклига ўтиш имкониятлари мавжуд" [5.24-25].

Бу нуқтаи назардан бошқа маданиятлар таъсирида ўзгара олмайдиган ўз қобиғига ўралиб қолган маданият ҳам ривожланмайди. У узоқ вақт давомида ихоталанган ҳолда яшаса, бошқа маданият таъсирида ривожлана олиш қобилиятини ҳам йўқотиб боради. Бундай шароитга тушиб қолган маҳаллий миллий маданият замонавийликдан, илғор маданият ва технологиядан, глобаллашувнинг миллат равнақига ижобий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган прогрессив таъсирларидан ажралиб қолиши мумкин. Чунки миллий маданиятнинг бойиши ва ранг-баранглиги унинг янги элементларни қабул қила олиш потенциали ҳисобига таъминланади. Маълумки, ҳар қандай ранг-баранглик ва турли-туманликнинг моҳияти бирхилликнинг моҳиятидан кўра бойроқ.

Ўзбекистон мустақилликка эришиб, жаҳон хамжамиятида ўз ўрнига, нуфузига эга бўлиб бораётган бугунги кунда, глобаллашув жараёни таъсиридан четда туриши мумкин эмас. Мамлакатимиз тинчлигига рахна солаётган маданиятга доир муаммолардан бири эса "оммавий маданият" таҳдидидир.

Америкалик файласуф ва ёзувчи Дуайт Макдональд ўзининг "Оммавий маданият назарияси" мақоласида бу ҳақда шундай ёзади: "...Оммавий коммуникация тизими орқали оммавий маданият жамият аъзоларининг мутлақ кўпчилигига амал қилади, инсон дунёсининг барча кўринишларида: маълум турмуш тарзи ва кийим услубидан тортиб, турнинг маълум чекловларигача; мафкуравий тамойилларга риоя қилишдан яқинлар ўртасидаги махсус муносабатларгача ўз қоидаларини ўрнатади. Оммавий маданият инқилобий хусусият ва динамикликка эга бўлиб, синфлар, анъаналар ва дидлар ўртасида ҳар қандай тўсиқларни бузади; у барча маданиятлараро хусусиятларни эритиб юборади, ўз йўлидаги ҳамма нарсани аралаштириб юборади. Шу билан бирга, барча қадриятларни йўқ қилиши ҳам мавжуд. Маданиятда гомогенизатсия (С.И.-маданий бир хиллик, қўшилиб кетиш) ва ундан кейинги маданий "колонизатсия" шундай содир бўлади[6, 3-4].

Хўш бундан кўзланган мақсад нима?

Фикрсизлик оқибатида тобе бўлиш-куч билан бўйсундирилгандан кўра минг чандон фожиали. Тарих кўп бор гувоҳ бўлган: қурол-аслаҳа воситасида бўйсундирилган халқлар кўп йиллар, ҳатто асрлар ўтсада, барибир озодликка эришишган. Чунки қурол-аслаха миллий тафаккурини, қалбини забт эта олмаган одамлар онгида озодликка эришишдек улуғ орзу яшайверган! Аммо халқнинг онги маҳв этилса-чи? Бундай халқ миллий озодлик хақида ўйлашга қодир бўлмаслиги, бунга қурби етмаслиги кундай равшан. Миллат учун, ҳалқ учун бундан оғиррок фожиа борми? Миллий озодликни унутиш миллатнинг изсиз йўқолиши эмасми?

«Оммавий маданият» жамиятнинг маънавий, ахлоқий қадриятларини, бир сўз билан айтганда миллий маиший ҳаётни зимдан таъқиб қилиб боради. Ҳатто миллий, диний тарбиядан, урф-одатлардан бегоналашиш, уларни менсимасликка даъват қилиш ҳоллари ҳам кузатилаётгани ташвишланарли, албатта.

Мафкуравий иммунитет шахс томонидан ватан, миллат учун кўнгилли, ғоявий асосланиб амалга ошириладиган кундалик ишларидан номаён бўлади. Бу фаоллик миллий бирлик, маънавий юксалишга халақит бераётган, сифатлар ёт қарашлар, миллий хавфсизлигимизга, ички ва ташқи таҳдидларга очиқ ва мардона қарши туришни ҳам ўз ичига олади. Бошқача қилиб айтганда, - элим, юртим деб яшашнинг ҳар бир кишида, жамоада, жамиятда номаён бўлишини англатади. Бу эса миллий ғояни амалий кучга айлантириш ва бузғунчи мафкуравий таъсирларидан аҳолини, ёшларимизни ҳимоя қилишнинг шартларидан биридир.

Ёшларимиз ёт мафкуралар тарғиботининг "меҳрибонлиги", "холислиги" ва "бетарафлиги", "ёқимлилиги", "дўстоналиги"нинг ортида нима ётганини доимо билишлари лозим. Яъни уларнинг заминида Ўзбекистоннинг ривожланиб кетишига қараб мунтазам тактикасини ўзгартириб турувчи жонсарак ақидапарастлик тарғиботи натижаси ва амалиёти ётганини, уларнинг анъанавий фундаменталистик назарияси ва ғояларни замонавий усулларда "жонлантираётганлигини" тушуниш зарур.

Шу билан бирга, айрим ёшлар ҳар хил ёт ғояларни холис ахборот манбаи сифатида қабул қилаётганликларини ҳам таъкидлаш керак. Уларга, умуман ёшларимизга, номаълум, ёт мафкураларни кўр - кўрона қабул қилиш зарарли эканини тушунтириш тарбиявий ва тарғибот ишларимизни доимий марказида бўлиши лозим.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган туб ўзгаришларнинг тақдири, сўзсиз, ҳар бир фуқаро, аниқроғи, инсонинг фаоллигига боғлиқдир. Бу эса ислоҳатларнинг моҳиятини халққа тушунтиришни талаб қилади. Шунинг учун ривожланган мамлакатларда мафкуранинг тарғиботи "Хукумат сиёсатининг ташвиқоти" кўринишида амалга оширилади.

Хулоса қилиб айтганда, маданиятнинг оммавийлашуви ва "оммавий маданият" тушунчалари бир хил маънони бермайди. Биринчиси, маданиятлар алмашинуви, миллий маданиятларнинг ривожланиши ва унинг элементларини оммавийлашувини билдирса, иккинчиси, ғоявий таъсир воситаси, миллий маданиятнинг кушандаси сифатида хизмат қилади. «Оммавий маданият» таҳдиди, бугунги замон воқеликка очиқ кўз билан, реал ва ҳушёр қарашни, жаҳонда ва ён-атрофимизда мавжуд бўлган, тобора кучайиб бораётган маънавий таҳдид ва хатарларни тўғри баҳолаб, улардан тегишли хулоса ва сабоқлар чиқариб яшашни талаб этади. Шу боис юртдошларимиз, айниқса, ёш авлод онгида мураккаб ва таҳликали ҳаёт ҳақида, унинг шафқатсиз ўйинлари тўғрисида бирёқлама ва сохта тасаввур бўлмаслиги лозим. Унутмаслигимиз керакки, огохлик ва хушёрлик, мафкуравий етуклик ва маънавиятлилик давримизнинг талабидир.

Адабиётлар:

1.Саидов У. "Оломон адабиёти", "Тафаккур" журнали, 2008, №2, 5-бет.

2.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналмилал маданият маркази ташкил этилганининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи. 24.01.2017. Интернет манба: http//www.prezident.uz2.

3. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч.- Т.: Маънавият, 2008

4. Библер О. От наукоучения к логике культуры: два философских введения в двадцать первый век.- М.: Политиздат, 1991.

5. Рац М. Диалог в современном мире. // Вопросы философии.- 2004.- № 10. 47 .

6. Dwight MacDonald "A Theory of Mass Culture", in Diogenes, No. 3, Summer 1953, pp. 3-

7. Бъюкенен П. Ғарбнинг ҳалокати. "Жаҳон адабиёти" журнали,2007, 1-сон.

8. S. Ibragimov. The concept of "Mass sulture" and its threat to youth education. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(11), November, 2023, pp. 102-107.

9. Ибрагимов С.Э. Ёшлар тарбиясида "Оммавий маданият" тахдиди. "Sohibqiron yulduzi" журнали 2022 йил № 1, б-140.

10.Ибрагимов С.Э. Глобаллашув жараёнида "Оммавий маданият"нинг ёшлар тарбиясига тахдиди. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. No. 11, 2022, 397-402.

MIGRATSIYANING OILAVIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI

M.G‘.Abdusalomova
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Zamonaviy mehnat migratsiyasi, yuqori turmush darajasiga bo‘lgan intilish, aholi sonining ortishi, rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchiga bo‘lgan talablarning yuqoriligi, mavjud mintaqalarda ish o‘rinlarining yetarli emasligi migrantlar sonining orib borishiga sabab bo‘lmoqda. Migratsion jarayonlarning rivojlanishi, bu jarayonlarning oilaviy munosabatlarga bo‘lgan ta’sirini ham sezilarli darajada oshirayotgani xech kimga sir emas. Ushbu maqolada migratsion jarayonlarning oilaviy munosabatlarga, farzandlar hayoti, kelajagi va dunyoqarashiga nisbatan ta’siri atroflicha muhokama etilgan. Mavjud muommolar va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: oilaviy migratsiya, xalqaro mehnat migratsiyasi, oilani birlashtirish migratsiyasi, oila shakllanishi, oila bilan migratsiya, farzand asrab olishning xalqaro migratsiyasi, davlatlararo nikoh.

Barchamizga ma’lumki zamon rivojlanar ekan, insonlarning ongi, hayoti, intilishi ham jamiyatga, zamonga monand o‘zgarib boradi. Hozir shiddat bilan rivojlanib borayotgan, yangilik va ixtirolarga to‘la, insoniyat hayotini turli shakllarda yangilayotgan, yengillashtirayotgan va o‘zgartirib yuborayotgan zamon barchani yaxshi hayot kechirishga, munosib turmush darajasiga erishishga bo‘lgan intilishini oshirib yubordi.

Bunday jarayonlar, o‘zgarishlar yurtimizni ham chetlab o‘tmadi, albatta. Yurtimiz hozir rivojlanish va yangilanish bosqichida. Tabiiyki bunday bosqichda har qanday davlatning oldida albatta fuqarolarini munosib turmush darajasiga erishishlarini kafolatlash uchun ularni daromadli ish bilan ta’minlash hamda yetarli ish o‘rinlarini yaratish vazifasi birlamchilar qatorida turadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yil yakuniga qaraganda mamlakatimizda ishsizlik darajasi 6,8 foizni tashkil etib, avvalgi yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga kamaydi. Ammo aholining ishsizlik darajasining kamayishiga yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar qatorida migratsion jarayonlarning ta’siri ham yuqori ekanligini ta’kidlab o‘tish kerak.

Jahondagi ishchi kuchi donorlari va retsipientlarining iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biri bo‘lgan xalqaro mehnat migratsiyasi aynan mamlakatlarda mehnat resurslari balansini optimallashtirish va mahalliy mehnat bozoridagi bosimni yumshatishda muhim rol o‘ynamoqda.

Tabiiyki migratsiya jarayonlari rivojlanib borishi uning bir qancha turlarining ham paydo bo‘lishi va rivojlanishiga asos bo‘ladi. Ular qatorida ayniqsa mehnat migratsiyasi va oilaviy migratsiya alohida ahamiyatga ega.

Mehnat migratsiyasi (inglizcha labour migration) – bu ish qidirib topish va bandlik bilan bog‘liq hudud bo‘ylab odamlarning almashinishini o‘zida ifodalaydigan migratsiyaning bir turi.

Oilaviy migratsiya “family migration” deganda, o‘z oila a’zolari bilan boshqa mamlakat yoki mintaqaga ko‘chib o‘tayotgan shaxslarning ko‘chishi tushuniladi. Ushbu turdagi migratsiya ilk bor 1978-yilda tadqiqotchi Mincer tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, endi migrantlar deganda yakka shaxs emas, balki oilaviy migratsiya ham nazarda tutilishi ta’kidlangan.

Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot 2022-yilda 281 mln kishi o‘z vatanidan tashqarida yashashini, ularning 169 mln.i aynan mehnat migrantlari ekanligini hamda ularning 67,9 foizi yuqori daromadli va 18,6 foizi o‘rta daromadli mamlakatlarda to‘planganligini ma’lum qiladi.[1] Xalqaro migrantlar tarkibida yakka o‘zi mehnat migratsiyasini amalga oshirgan migrantlar orasida oilaviy migratsiyani amalga oshirgan migrantlar soni ham ortib borayotgani juda ahamiyatli.

Umuman olganda, migratsiya jarayonlarini hisobini olib borish ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Jahon miqyosida 281 mln migrantlar bo‘lsa, ularning 60 foizini mehnat migrantlari, 10 foizini bolalar, 12,5 foizini qochoqlar, 12,8 foizini talaba migrantlar va boshqalar tashkil etadi.

Migrantlarning eng ko‘p qismini mehnat migrantlari, mehnat migrantlarining deyarli yarmini esa oilaviy migrantlar tashkil etadi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti hisobotiga ko‘ra, 2022-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) mamlakatlariga tashrif buyurgan mehnat migrantlarning 40 foizi aynan oilaviy sabablarga ko‘ra tashrif buyurgan va ushbu ko‘rsatkich 2,2 mln. migrantni tashkil qildi[2].

Oilaviy migratsiyaning sabablariga ko‘ra bir necha keng tarqalgan turlari mavjud bo‘lib, ularni birma-bir ko‘rib chiqamiz:

1.Oilalarni birlashtirish migratsiyasi (Family Reunification Migration) – bu dastlab boshqa joyga ko‘chib o‘tgan oila a’zolarining o‘z yaqinlari bilan birga yashashga intilishi bilan namoyon bo‘lgan. Bunda esa migrantlarga oila a’zolarining ya’ni farzandlari, rafiqalari yoki qarindoshlarini olib kirishga ruxsat berish siyosati yordam beradi[3].

2. Oila bilan mehnat migratsiyasi (Labor Migration with Family) – bunday turdagi migrantlar o‘zga yurtda ishlash uchun oila a’zolari bilan birga ko‘chib boradilar. Ushbu migratsiya turi ko‘proq qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida ko‘proq namoyon bo‘ladi.

3. Qochoq yoki boshpana izlovchi migratsiya (Refugee or Asylum-Seeking Migration) – oilalar taqib, zo‘ravonlik yoki qandaydir mojarodan qochganlarida birga ko‘chib ketishlari mumkin.

4. Doimiy rezidentlar migratsiyasi (Permanent Resident Migration) – oilalar oila asosida ko‘chib o‘tishga ruxsat beruvchi turli vizalar orqali boshqa mamlakatda yashash uchun ko‘chib o‘tadilar.

5. Ta'lim migratsiyasi (Education Migration) – ba’zi oilalar o‘zlari yoki farzandlarining yetarli va yaxshi ta’lim olish imkoniyatlaridan foydalanishlari uchun boshqa davlatlarga ko‘chib ketadilar.

6. Farzand asrab olishning xalqaro migratsiyasi (International Adoption Migration) – oilalarni boshqa mamlakatlardan farzand asrab olishlari bilan bog‘liq migratsiya.

7. Oila bilan mavsumiy yoki vaqtinchalik migratsiya (Seasonal or Temporary Migration with Family) – qishloq xo‘jaligi sharoitidagi oilalar mavsumiy migratsiya bilan shug‘ullanadilar.

8. Davlatlararo nikoh (Inter-country Marriage) – oilalar transchegaraviy nikohlar natijasida migratsiya qiladilar.

Oilaviy migratsiya jarayonlarini tizimlashtirish turlarga ajratish uning salbiy va ijobiy jihatlarini tahlil qilishda muhim omillardan hisoblanadi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan anglashiladiki, oilaviy migratsiya o‘rganilishi muhim bo‘lgan va o‘zida oilalarni iqtisodiy, ijtimoiy ahvolini yaxshi tarafga o‘zgartiradigan, ularning bilim olishlari, zamonaviy kasb turlarini egallashlari va munosib turmush darajalariga erishishlari uchun yordam beradigan, davlatlararo turli madaniyatlarning almashinuviga yaqindan ko‘maklashadigan ijobiy xususiyatlarni jamlab olgan jarayon hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, yaxshiroq tibbiy yordam olish imkoniyatlarining oshishi, yangi tillarni o‘rganish imkoniyati, yangi ko‘nikmalar va tajribalar olish imkoniyati, ijtimoiy barqarorlikning ta’minlanishi migratsiyaning o‘ziga xos jihatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Ammo ko‘p hollarda oilaviy migratsiya stress, tushkunlik, qiyinchiliklar va tushunmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi va iqtisodiy qiyinchiliklarga olib keluvchi salbiy jarayon hamdir. Oilaviy migrantlarda yangi tilni bilmaslik, yangi madaniyatlarga moslashish, yaqinlari va yaqin do‘stlaridan ajralgan holda yashash jarayonlari stressli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Migrant ota-onalarning farzandlari bilan munosabatida ko‘plab salbiy tushunmovchiliklar, madaniyatlar o‘rtasidagi farq va moslashishning qiyinchiliklari tufayli kelib chiqadi. Ma’lumotlarga qaraganda migrantlar duch keladigan eng ko‘p muommolardan biri ko‘chib borgan mamlakatining qonunchiliklarini bilmasligi va eng qizig‘i o‘z haq-huquqlarini ham to‘la anglab yetmasliklari tufayli ham kelib chiqmoqda ekan[4]. Va shuni alohida ta’kidlash joizki, oilalarning yangi joyga ko‘chishi bilan, ularning vatanida qolgan qo‘shni va do‘stlariga bo‘lgan sog‘inch hissi kuchayishi mumkin, bu esa ruhiy holatga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Oilaviy migratsiya jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qancha taklif va tavsiyalar berish mumkin. Ushbu tavsiyalar oilaning har bir a'zosining farovonligini oshirishga

xizmat qiladi, yangi muhitga moslashishni osonlashtirish va migratsiya jarayonini yaxshilashga yordam beradi:

- Migratsiya jarayonlarini oldindan rejalashtirish va migratsiya amalga oshadigan mamlakat va uning qonunchiligi haqida yaxshi ma'lumotlarga ega bo'lish;
- O'z huquq va erkinliklarini bilish va himoya qilishning har qanday shakllaridan to'laqonli foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- Migratsiya amalga oshiriladigan mamlakatning tili, urf-odatlari va milliy qadriyatlarini o'rganish.
- Migratsiya jarayonini amalga oshirayotganda o'sha mamlakatning madaniyati va urf-odatlari oilaviy munosabatlarga va farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazmasligiga ishonch hosil qilish;
- Oila a'zolarini tayyorlash, ya'ni har bir oila a'zosining yangi joyga ko'chish haqidagi fikrlarini va his-tuyg'ularini muhokama qilish va farzandlarga yangi maktab, yangi tilga o'rganishda yordam berish kerak.
- Moliyaviy masalarni oldindan rejalashtirish.

Yuqoridagi usullardan samarali foydalanish oilaviy migratsiya jarayonining muvvafaqiyatli amalga oshirilishida hamda oila a'zolarining turli stress va qiyinchiliklarga duch kelmasliklarida yetarlicha yordam beradi deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boyd, M. (1989). Family and personal networks in international migration: Recent developments and new agendas. International Migration Review, 23(3), 638–670.
2. Zlotnik, H. (1995). Migration and the family: The female perspective. Asian and Pacific Migration Journal, 4(2–3), 253–271.
3. Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafovna: Oilaviy migratsiyaning ilmiy-nazariy asoslari: Economics and Innovative Technologies Journal, 4/2024, iyul-avgust (№ 00072).
4. O. D. Vorobyova, A. V. Topilin: Ko'p qirrali migratsiya: M. Iqtaxborot. 2014. 274-b.